



2022/2023-O'QUV YILIDAN MAGISTRATURADA O'QIYDIGAN BARCHA XOTIN-QIZLARNING KONTRAKTI TO'LAB BERILADI

Manba: PF-87-son, 07.03.2022-y.

@huquqiyaxborot

2022/2023-o'quv yilidan:



OTM, tyexnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun **7 yilga foizsiz** kredit berish uchun banklarga **byudjetdan har yili 1,8 trillion so'm** yo'naltiriladi



davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan **barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi** va bunga har yili **kamida 200 milliard so'm** ajratiladi



xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – **50 nafar**, magistratura uchun – **10 nafar** xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali **qo'shimcha grantlar** ajratiladi



har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning **ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan** to'lab beriladi



davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM **doktoranturasiga** xotin-qizlar uchun **har yili kamida 300 tadan** maqsadli kvota ajratib boriladi

2022-yil 1-apreldan

Tadbirkorlikni yangi boshlayotgan xotin-qizlarga ajratilayotgan **subsidia miqdori 7 million so'mdan 10 million so'mga** oshiriladi

2022-yil 1-apreldan:



boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarning:



farzandlari davlat bog'chalariga to'lanadigan **ota-onalar badalidan ozod qilinadi**

3 yoshgacha farzandlari uchun nodavlat bog'chalarga **byudjetdan subsidiyalar** ajratiladi

to'liq quvvat bilan ishlamayotgan davlat bog'chalariga **2 yoshdan 3 yoshgacha** bolalarni pullik xizmat ko'rsatish shaklida qabul qilishga **ruxsat beriladi**

kechki smenada xotin-qizlar ishlaydigan korxonada va tashkilotlar o'z huzurida bog'cha **tashkil qilganda**, ulardagi **tarbiyachilarning ish haqi byudjetdan qoplab beriladi.**